## «O'ZNEFTGAZINFORMATIKA» AJNING 2016 YILDA KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMINING BAHOLASH BO'YICHA XULOSA

Korporativ boshqaruv kodeksi tavsiyalarini bajarish maqsadida Kompaniya «O'ZNEFTGAZINFORMATIKA» AJ Kuzatuv kengashi qarori asosida, korporativ boshqaruv tizimining mustaqil baholanishini o`tkazdi.

Kompaniyaning 2016 yildagi korporativ boshqaruv tizimining mustaqil baholash «INTELLIGENT ANALYTICS GROUP» MChJ tomonidan amalga oshirildi.

«O'ZNEFTGAZINFORMATIKA» AJ korporativ boshqaruv tizimini o`rganish natijalariga ko`ra Kompaniya *«qoniqarli»* bahoga - (367 bal yoki foiz miqdorda 31%) - sazovor deb xulosa berildi. Shuningdek, «O'ZNEFTGAZINFORMATIKA» AJda korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish uchun tegishli tavsiyalar berildi.

Ta'kidlash lozimki, korporativ boshqaruv tizimini mustaqil baholash O'zbekiston Respublikasi raqobat bo`yicha davlat qo`mitasi va Korporativ boshqaruv Ilmiy-ta'lim markazi tasdiqlagan savolnoma asosida o`tkaziladi.

Faoliyat samaradorligi baholash natijasida:

- umumiy to`plangan ballar miqdori minus 600 baldan past bo`lsa – ***qoniqarsiz***;
- umumiy to`plangan ballar miqdori minus 0 dan past bo`lib, minus 600 dan past bo`lmasa - ***quyi***;
- umumiy to`plangan ballar miqdori 600 baldan past bo`lib 0 baldan past bo`lmasa - ***qoniqarli***;
- umumiy to`plangan ballar miqdori 600 bal yoki undan baland bo`lsa – ***yuqori*** deb hisoblanadi.